XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 14 - avgust VI-55-160-8-109-K/23 Angor tuman hokimligi

Angor tumanidagi ayrim geografik obyektlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 4-oktabrdagi 08-08580-sonli xati ekspert xulosalariga asosan Angor tumani “Bahor” MFYda ayrim ko‘chalarni nomlash bo‘yicha o‘rganib chiqilib ijobiy xulosa berilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 4-oktabrdagi 08-08580-sonli xati ekspert xulosalariga asosan Angor tumanida ayrim nomsiz ko‘chalarni nomlash nomlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (O.Umarov), tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (D.Chariyeva), Angor tumani mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Sh.Mirzayev), tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig‘inlarida ko‘cha nomlari aks ettirilgan peshlavhalarni 1 oy muddatda belgilangan tartibda o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman statistika bo‘limi (A.Xudoyorov), O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi Angor tuman filiali (E.Mingliyev) nomlangan ko‘chalarning nomlarini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish vazifasi yuklatilsin va tuman Ichki ishlar bo‘limi (S.Choriyev) fuqarolarni doimiy yashash joyiga ro‘yxatga qo‘yishda yangi nomlangan ko‘chalarni inobatga olish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash uchun tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (D.Chariyeva) hamda tuman hokimining o‘rinbosari (O.Umarov), Angor tumani mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Sh.Mirzayev)lar mas’ul etib belgilansin.

5. Belgilab qo‘yilsinki, nomlangan ko‘chalarga peshlavhalar tayyorlash, o‘rnatish uchun sarflanadigan mablag‘lar qonunda taqiqlanmagan manbalar hisobidan qoplansin.

6. Mazkur qaror “Angor yog‘dusi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova), Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Yu.Xalimov) zimmalariga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **Q.Mardonov**

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining
2023-yil 14-avgustdagi
VI-55-160-8-109-K/23-son qaroriga
1-ilova

Angor tumani “Bahor”MFYdagi ayrim ko‘chalarni nomlash to‘g‘risida takliflar

№	Geografik obyektning nomi	Geografik obyektning tasdiqlanganligi haqidagi qaror	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Tuman (tumanlarga tenglashtirilgan shaharlar)	Tarixiy (avvalgi nomi)	Tarixiy (avvalgi) nomima’lumotlarining tasdiqlanganligi haqidagi qaror
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Yusuf Xos Hojib	Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 4-oktabrdagi 08-08580-son yig‘ilish bayoni bilan ekspert xulosasi olingan. 2022-yil 15-noyabr kuni tuman sessiyasiga kiritilish rejalashtirilgan.	ko‘cha	“Bahor”MFY			
2	Angor	Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 4-oktabrdagi 08-08580-son yig‘ilish bayoni bilan ekspert xulosasi olingan. 2022-yil 15-noyabr kuni tuman sessiyasiga kiritilish rejalashtirilgan.	ko‘cha	“Bahor”MFY			
3	Kamolliddin Behzod	Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 4-oktabrdagi 08-08580-son yig‘ilish bayoni bilan ekspert xulosasi olingan. 2022-yil 15-noyabr kuni tuman sessiyasiga kiritilish rejalashtirilgan.	ko‘cha	“Bahor”MFY			
4	Iqbol	Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 4-oktabrdagi 08-08580-son yig‘ilish bayoni bilan ekspert xulosasi olingan. 2022-yil 15-noyabr kuni tuman sessiyasiga kiritilish rejalashtirilgan.	ko‘cha	“Bahor”MFY			
5	Matonat	Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 4-oktabrdagi 08-08580-son yig‘ilish bayoni bilan ekspert xulosasi olingan. 2022-yil 15-noyabr kuni tuman sessiyasiga kiritilish rejalashtirilgan.	ko‘cha	“Bahor”MFY			

№	Geografik obyektning nomi	Geografik obyektning tasdiqlanganligi haqidagi qaror	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Tuman (tumanlarga tenglashtirilgan shaharlar)	Tarixiy (avvalgi nomi)	Tarixiy (avvalgi) nomima’lumotlarining tasdiqlanganligi haqidagi qaror
6	Yorqin	Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 4-oktabrdagi 08-08580-son yig‘ilish bayoni bilan ekspert xulosasi olingan. 2022-yil 15-noyabr kuni tuman sessiyasiga kiritilish rejalashtirilgan.	ko‘cha	“Bahor”MFY			
7	Sarafroz	Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 4-oktabrdagi 08-08580-son yig‘ilish bayoni bilan ekspert xulosasi olingan. 2022-yil 15-noyabr kuni tuman sessiyasiga kiritilish rejalashtirilgan.	ko‘cha	“Bahor”MFY			
8	Xonto‘ra	Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 4-oktabrdagi 08-08580-son yig‘ilish bayoni bilan ekspert xulosasi olingan. 2022-yil 15-noyabr kuni tuman sessiyasiga kiritilish rejalashtirilgan.	ko‘cha	“Bahor”MFY			
9	Saromad	Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 4-oktabrdagi 08-08580-son yig‘ilish bayoni bilan ekspert xulosasi olingan. 2022-yil 15-noyabr kuni tuman sessiyasiga kiritilish rejalashtirilgan.	ko‘cha	“Bahor”MFY			
10	Boqiy	Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 4-oktabrdagi 08-08580-son yig‘ilish bayoni bilan ekspert xulosasi olingan. 2022-yil 15-noyabr kuni tuman sessiyasiga kiritilish rejalashtirilgan.	ko‘cha	“Bahor”MFY			